



Dastlabki ma'lumotlar

2024– yilning yanvar–mart oylarida Jizzax viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ko'rsatkichlari


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024– yilning yanvar–mart oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 3 166,5 mlrd. so'mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 3 008,9 mlrd. so'mni (103,4 %), o'rmon xo'jaligi – 84,0 mlrd. so'mni (102,8 %), baliqchilik xo'jaligi – 73,6 mlrd. so'mni (104,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Jizzax viloyatining ulushi 7,0 % ni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'atlari




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari umumiylajmining taqsimlanishi (%)



2024– yilning yanvar–mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 95,0 % – dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 2,7 % i – o‘rmon xo‘jaligi, 2,3 % i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keldi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2024– yilning yanvar–mart oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Baxmal (548,7 mlrd. so‘m) va G’allaorol (475,1 mlrd. so‘m) tumanlariga qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Jizzax shahri (86,0 mlrd. so‘m), Yangiobod (86,6 mlrd. so‘m) va Mirzacho'l (104,0 mlrd. so‘m) tumanlarini keltirib o‘tish mumkin.

Viloyat ko‘rsatkichi (102,7 %) dan yuqori o‘sish sur’atlari Zafarobod (118,7), G’allaorol (106,0), Paxtakor (105,9), Mirzacho'l (104,8 %), tumanlarida kuzatildi. Zarbdor (103,0 %), Sharof Rashidov (102,8), Jizzax shahri (102,8 %), Yangiobod (101,6), Arnasoy (101,6 %), Baxmal (101,4), Forish (101,4 %), Zomin (101,4 %) va Do'stlik (100,4 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur’atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2024 – yilning yanvar–mart oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2 971,5 mlrd. so'mni yoki 2023 – yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 96,3 mlrd. so'mni (104,3 %), chorvachilik mahsulotlari – 2 875,2 mlrd. so'mni (103,3 %) tashkil qildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 92,1 % i – dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 5,3 % i – fermer xo'jaliklariga, 2,6 % i – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar
bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)**



2024-yilning yanvar–mart oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Paxtakor tumanida (15,7 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (98,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi G'allaorol tumanida (5,6 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Jizzax shahrida (0,2 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Paxtakor tumanida (83,8 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Baxmal tumanida (0,1 %) kuzatildi.

Dehqonchilik


2024–yilning yanvar–mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 96,3 mlrd. so‘mni yoki 2023–yilning mos davriga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 3,2 % ni tashkil qildi.

Sabzavotlar


Hajmi, ming t.



O’sish sur’ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1,1 ming t. sabzavotlar (2023–yilning yanvar–martiga nisbatan 2,3 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 57,0 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



Jizzax viloyati bo'yicha
sabzavotlar yetishtirish
hajmi, tonna




Chorvachilik



2024– yilning yanvar–mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 875,2 mlrd. so‘mni yoki 2023– yilning mos davriga nisbatan 103,3 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.


Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora–tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2024– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 37,7 ming t. go‘sht (2023– yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga ko‘p), 125,5 ming t. sut (2,4 % ga ko‘p), 628,0 mln. dona tuxum (10,2 % ga ko‘p), yetishtirildi va 3 342,2 t. baliq (5,5 % ga ko‘p) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 37,7 ming t. go'sht (2023–yilning yanvar–martiga nisbatan 2,9 % ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiylajmidan 95,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelgani kuzatildi.




Jizzax viloyati bo'yicha
go'sht (*tirik vaznda*)
yetishtirish hajmi, tonna




Sut


Hajmi, ming t.



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024–yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 125,5 ming tonna sut (2023–yilning yanvar–martiga nisbatan 2,4 % ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 96,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Jizzax viloyati bo'yicha
yetishtirilgan sut hajmi, tonna




Tuxum


Hajmi, mln. dona



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo'jaliklari


● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 62,8 mln. dona tuxum (2023– yilning yanvar–martiga nisbatan 10,2 % ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiylajmidan 51,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Jizzax viloyati bo'yicha
yetishtirilgan tuxum
hajmi, ming dona




Baliq


Hajmi, t.



O'sish sur'ati




Ovlangan baliqning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2024– yilning yanvar–mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 3 342,2 tonna (2023– yilning yanvar–martiga nisbatan 5,5 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiyligi hajmidan 78,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.



Jizzax viloyati bo'yicha
ovlangan baliq
hajmi, tonna



Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024– yilning 1– aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, yirik shoxli qoramollarning 6,6 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 89,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 3,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini kuzatildi, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiyligini sonidan 18,6 % i fermer xo'jaliklariga, 65,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,5 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, otlar umumiyligini sonidan 24,9 % i fermer xo'jaliklariga, 58,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 17,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi shuningdek, parrandalar umumiyligini sonidan 8,0 % i fermer xo'jaliklariga, 44,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 47,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 939,6 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 10,4 mingtaga (1,1 %) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024 – yilning 1 – aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 89,8 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati
bo'yicha yirik shoxli qoramollarning
umumiyl bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 272,1 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni – 6,3 ming taga (2,4 %) ko‘paydi.

Sigirlar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati



Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 88,5 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati
bo'yicha sigirlarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh




2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 410,4 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni – 78,4 ming taga (3,4 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar


Soni, ming bosh



O‘sish sur’ati



Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



● Fermer xo‘jaliklari

● Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari


● Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 65,9 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha
qo'y va echkilarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh




2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 31 676 taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni – 855 taga (2,8 %) ko‘paydi.

Otlar


Soni, bosh



O'sish sur'ati



**Jami bosh sonining
xo'jalik toifalari
bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 58,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati
bo'yicha otlarning
umumi bosh soni, bosh




2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 3 785,5 ming taga yetdi.


2023– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni – 36,8 ming taga (2,5 %) kamaydi.

Parrandalar


Soni, ming bosh



O’sish sur’ati




Jami bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024– yilning 1–aprel holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 47,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Jizzax viloyati bo'yicha
parrandalarning
umumiyl bosh soni,
ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- 72-221-51-17
- 72-222-81-40